

UDK: 316.752

O'ZBEKISTONDA TALABALARDA MILLIY QADRIYATLAR TARIXINI O'QITISHNING ZAMONAVIY DIDAKTIK YONDASHUVLARI VA INNOVATSION METODLARI

Andayeva Shaxnoz Sanaqulovna

Texnologiya, menejment, kommunikatsiya instituti

"Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası mudiri

E-mail: shahnoza7448@gmail.com

Tel. 90 9307448

tarix fanlari doktori(DSc), dotsent

Abdullayev Diyorjon Nodirjon o'g'li taqrizi asosida

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston sharoitida talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o'qitishning zamonaviy didaktik yondashuvlari va innovatsion metodlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot ta'lim jarayonida milliy-ma'naviy tarbiyani kuchaytirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, xizmat-orientatsiyalangan o'qish (service-learning), raqamli vositalar va madaniy-merosga asoslangan faoliyatlarni amaliy qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: milliy qadriyatlar, didaktika, innovatsion metodlar, talaba, oliy ta'lim, raqamli ta'lim.

MODERN DIDACTIC APPROACHES AND INNOVATIVE METHODS IN TEACHING THE HISTORY OF NATIONAL VALUES TO STUDENTS IN UZBEKISTAN

Annotation: The article analyzes the modern didactic approaches and innovative methods used in teaching the history of national values to students in the context of Uzbekistan, from both theoretical and practical perspectives. This study highlights the possibilities of applying pedagogical technologies aimed at strengthening national and spiritual education in the learning process, including interactive methods, project-based learning, service-learning, digital tools, and heritage-oriented activities.

Keywords: national values, didactics, innovative methods, student, higher education, digital learning.

СОВРЕМЕННЫЕ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ СТУДЕНТАМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В статье теоретически и практически анализируются современные дидактические подходы и инновационные методы преподавания истории

национальных ценностей студентам в условиях Узбекистана. В исследовании раскрываются возможности применения педагогических технологий, направленных на укрепление национального и духовного воспитания в образовательном процессе, включая интерактивные методы, проектное обучение, сервис-обучение (service-learning), цифровые инструменты и виды деятельности, основанные на культурном наследии.

Ключевые слова: национальные ценности, дидактика, инновационные методы, студент, высшее образование, цифровое обучение.

KIRISH

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodda milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli axborot makonining kengayishi hamda madaniy-ma'naviy tahdidlarning kuchayishi sharoitida talabalarda milliy qadriyatlar tarixini chuqur o'rganish, ularni anglash va amaliy hayotda qo'llashga oid kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Chunki milliy qadriyatlar – xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va ijtimoiy identitetining asosiy tayanchi bo'lib, ularni avloddan avlodga uzviy o'tkazish ta'lim muassasalarining strategik vazifasidir.

Oliy ta'lim tizimida milliy-ma'naviy tarbiyaning mazmun va metodlarini boyitish, ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish zarurati zamonaviy didaktikaning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o'qitish jarayonida an'anaviy bayon-tushuntirish metodlarining o'zi yetarli natija bermayotgani, aksincha, interaktiv, kompetensiyaga yo'naltirilgan, loyihaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar samaraliroq ekanligi pedagogik tadqiqotlar orqali tasdiqlanmoqda. Xususan, interfaol metodlar, raqamli o'qitish vositalari, gamifikatsiya elementlari, xizmat-oriyentatsiyalangan o'qish (service-learning) hamda madaniy merosga asoslangan ta'lim amaliyotlari talabalarda milliy tarixni chuqur anglash, mustaqil fikrlash va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan ma'naviy-ma'rifiy sohani modernizatsiya qilishga qaratilgan konseptual g'oyalar va davlat

dasturlari (Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar) ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni o'qitishni yangi sifat bosqichiga ko'tarishni talab etmoqda. Mazkur jarayon milliy identitetni mustahkamlash, yoshlarni buzg'unchi g'oyalar va axborot xurujlaridan himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o'qitishning zamonaviy didaktik yondashuvlarini aniqlash, ularni ilmiy asoslash va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish nafaqat pedagogikaning dolzarb muammosi, balki jamiyat taraqqiyotining strategik omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning ahamiyati milliy qadriyatlar ta'limini zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarning ma'naviy-intellektual salohiyatini oshirish va ularni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qilishidan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAXLILI

Milliy qadriyatlar tarixini o'qitish bo'yicha ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili mazkur yo'nalishning ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Jahon va mahalliy pedagog olimlarning ishlari shundan dalolat beradiki, qadriyatlar ta'limi insonning ma'naviy-axloqiy shakllanishi, fuqarolik pozitsiyasi va madaniy identitetini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Aksiyologik yondashuvga bag'ishlangan klassik ilmiy manbalarda (V. Frankl, M. Scheler, N. Hartmann) qadriyatlar inson dunyoqarashining negizi, uning ijtimoiy xulqi va ongli faoliyatini belgilovchi bosh mezon sifatida talqin etiladi. Ushbu nazariy qarashlar ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning muhimligini asoslaydi. Zamonaviy konstruktivistik pedagogika vakillari (J. Dewey, L. Vygotskiy, D. Bruner) esa ta'limning mazmuni talabani shaxsiy tajribasi, ijtimoiy faoliyati va madaniy kontekst bilan bog'langan taqdirdagina samarali bo'lishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv milliy qadriyatlar tarixini interaktiv va faoliyatga yo'naltirilgan metodlar orqali o'rgatishning ilmiy asosini yaratadi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar tomonidan so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar milliy qadriyatlar ta'limining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. Xususan, M. Xaydarov, A. Rasulov, D. Fayzullayeva, B. Vahobjonov kabi

tadqiqotchilar innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv va talabalarning fuqarolik-savodxonligini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, milliy qadriyatlar ta'limi zamonaviy darsning faqat nazariy qismida emas, balki amaliy mazmunida ham o'z ifodasini topmog'i lozim.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishga doir ilmiy ishlarda (Sh. Abdullayeva, E. Abzalov, A. Agzamxo'jayev) ta'kidlanishicha, yoshlar ongiga ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarning kuchayib borayotgan global sharoitda milliy qadriyatlarga tayangan ta'lim samarali profilaktik vosita hisoblanadi. Tadqiqotlarda interfaol suhbatlar, munozara metodlari, case-study, debatlar, hamkorlikda o'qitish, rolli o'yinlar kabi metodlarning ta'siri yuqori ekani qayd etilgan.

Raqamli ta'lim bo'yicha manbalarda (M. Prensky, G. Siemens, A. Karimova, N. Saydalixodjayeva) ta'lim jarayonini multimodal, media-savodli, interaktiv shaklda tashkil etishning afzalliklari asoslanadi. Ularning fikrlariga ko'ra, raqamli platformalar, virtual muzeylar, AR/VR texnologiyalari milliy qadriyatlar tarixini yoshlar ongiga yaqin, qiziqarli, vizual va amaliy tarzda singdirish imkonini beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, qonunlar va ta'lim strategiyalari ham ilmiy manba sifatida alohida o'rin tutadi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026), "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish"ga oid hukumat qarorlari milliy qadriyatlarni o'qitishning konseptual asoslarini belgilab bermoqda. Bu hujjatlar ta'lim jarayonida vatanparvarlik, milliy identitet, fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishni ta'limning ustuvor vazifasi sifatida belgilagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda milliy qadriyatlar ta'limiga oid izlanishlar ko'paygan bo'lsa-da, zamonaviy didaktik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, raqamli metodlar va madaniy-merosga asoslangan o'quv jarayonining integrativ modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar tarixini o'qitishning tizimli, ilmiy asoslangan metodik paketi hozircha to'liq shakllanmagan.

Demak, mavjud adabiyotlar milliy qadriyatlar tarixini o'qitishda innovatsion yondashuvlar zarurligini ko'rsatuvchi nazariy va amaliy asoslarni yaratadi, biroq

mazkur sohada kompleks metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari zamonaviy pedagogika, didaktika, aksiologiya, konstruktivizm nazariyalari hamda ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni rivojlantirishga doir ilmiy qarashlarga tayangan holda shakllantirildi. Tadqiqotning mazmuni talabalarda milliy qadriyatlar tarixini chuqur anglash, amaliy qo'llash va ma'naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni aniqlash va ularning didaktik imkoniyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayanadi:

1. Aksiologik yondashuv — qadriyatlar tizimini shaxs rivojlanishining markaziy omili sifatida ko'rib, ta'lim mazmuniga milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasini ta'minlaydi.
2. Konstruktivistik yondashuv — talabaning shaxsiy tajribasi, faol o'rganishi va bilimni o'zi yaratish jarayonini ta'limning asosiy mexanizmi sifatida ko'radi.
3. Kompetensiyaviy yondashuv — o'quv jarayonida nafaqat bilim berish, balki milliy identitet, ma'naviy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ va ijtimoiy faoliyat kompetensiyalarini shakllantirishga qaratiladi.
4. Innovatsion-pedagogik yondashuv — ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar, raqamli vositalar, interfaol metodlar, PBL va service-learning elementlaridan foydalanishni nazarda tutadi.
5. Integrativ yondashuv — milliy qadriyatlar tarixini boshqa fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, huquq, ijtimoiy psixologiya) bilan bog'lab o'qitishni ko'zda tutadi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi: Nazariy tadqiqot metodlari. Ilmiy adabiyotlar tahlili: milliy qadriyatlar, didaktika, innovatsion ta'lim, raqamli pedagogika va ma'naviy tarbiya bo'yicha xalqaro va mahalliy manbalarni o'rganish. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish: O'zbekiston ta'lim siyosati, davlat dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga doir qonunlar. Tizimli tahlil: ta'lim jarayonining komponentlarini (maqsad, mazmun, metod, vosita, natija) uzviylikda

o'rganish. Model qurish: milliy qadriyatlar ta'limining innovatsion-didaktik modelini yaratish.

Empirik metodlar.

- Kuzatish: dars jarayonlari, interfaol mashg'ulotlar, madaniy merosga oid tadbirlarning o'tkazilishi.
- So'rovnoma va anketa: talabalar va o'qituvchilarning milliy qadriyatlar ta'limiga munosabati, ehtiyojlari, malaka darajasini aniqlash.
- Intervyu: tajribali pedagoglar, metodistlar, psixologlar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar.
- Pedagogik diagnostika: talabalar bilim, kompetensiya va munosabatlaridagi o'zgarishlarni baholash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichiga kirib borayotganligi va globallashuv jarayonlarining jadallashuvi yosh avlod ma'naviyatini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrash va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llash zaruratini keskin oshirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o'qitishning an'anaviy metodlari hozirgi zamon talablari darajasida yetarli samaradorlik bermayapti. Shu bois, didaktik jarayonga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, interfaol metodlarni, raqamli ta'lim vositalarini, madaniy-merosga asoslangan faoliyatlarni integratsiyalash zarurati dolzarb masalaga aylangan.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, loyiha asosida o'qitish (PBL), xizmat-oriyentatsiyalangan o'qish (service-learning), gamifikatsiya, rolli o'yinlar, debatlar, multimedia va AR/VR texnologiyalari kabi metodlar talabalarda milliy tarixni chuqur anglash, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va fuqarolik fazilatlarini rivojlantirishda katta imkoniyat yaratadi. Bunday metodlar nafaqat bilimni o'zlashtirishni, balki qadriyatlarni shaxsiy tajribaga singdirishni, amaliy faoliyat orqali mustahkamlashni ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan didaktik model milliy qadriyatlarni o'qitish jarayonini integrativ, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan asosda tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu model oliy ta'lim tizimida talabalarning ma'naviy-mafkuraviy

immunitetini kuchaytirish, global axborot oqimi sharoitida ularni tanqidiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, yot g'oyalar ta'siriga nisbatan barqaror pozitsiya egallashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – B. 56.
2. Abdurahmonov A. Qadriyat – ma'naviy merosdir // «Ma'rifat gulshani» g. – 12 (77) 2007y. – 7-bet
3. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi T.: «Aloqachi» 2001 y. 163 bet.
4. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta'lim nazariyasi) Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2006 y. 125 bet
5. Barkamol avlod – Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh. 1998, 7-bet 6. Zaripov M.Z.Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi «Pedagogik ta'lim», -T.: 2000.- №2.-6-9 betlar.
7. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T:«O'qituvchi», 2004, - 95 bet.